

**Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat universitetining
2026-yil _____ apreldagi
_____-sonli va viloyat
Maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasining 2026-yil _____
apreldagi _____-sonli
qo'shma buyrug'iga 2-ilova**

**Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilari o'rtasida Fizika, Kimyo va
Biologiya, Informatika va axborot texnologiyalari fanlari olimpiadasini tashkil
etish, o'tkazish hamda g'olib o'quvchilarni rag'batlantirish tartibi to'g'risida**

NIZOM

I. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom umumiy o'rta ta'lim maktablari **bitiruvchi (11-sinf) sinf o'quvchilari** o'rtasida **Fizika, Kimyo, Biologiya, Informatika va axborot texnologiyalari fanlari** bo'yicha olimpiadani tashkil etish, o'tkazish va g'oliblarni rag'batlantirish tartibini belgilaydi.

II. Olimpiadani tashkil etish tartibi

2. Olimpiadaning bosqichlarini o'tkazish bo'yicha chora-tadbirlarni bajarish uchun Vazirlik hamda uning hududiy bo'linmalari o'z buyruqlari bilan tashkiliy qo'mitalar, tegishli hakamlar hay'atlari asosida tashkil etiladi.

III. Tashkiliy qo'mita

3. Olimpiadani tashkil etish uchun Urganch davlat universiteti hamda viloyat Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi bilan hamkorlikda olimpiada va uning bosqichlarini o'tkazish bo'yicha tashkiliy qo'mita tuziladi.

4. Tashkiliy qo'mitani vazifasi quyidagilardan iborat:

Olimpiada o'tkaziladigan joyni belgilash va tasdiqlash;

Hakamlar hay'ati tarkibi, apellyatsiya tarkibi, baholash mezonlari va auditoriya rahbarlari ro'yxatini shakllantirish;

-olimpiada nazorat materiallarini maxfiyligini mazkur olimpiada nizom talablari asosida o'tkazilishini ta'minlash;

Olimpiadani tashkil etilishini, o'tkazilishi va natijalarini ommaviy axborot vositalarida yoritib borishdan iborat.

-Tashkiliy qo'mita tarkibiga Urganch davlat universiteti professor-o'qituvchilari hamda umumiy o'rta ta'lim maktablari fizika fan o'qituvchilari kiritilishi mumkin.

IV. Baholash mezonlari (Fizika fani)

5. Tuman (shahar) bosqichi (27.04.2026): Ushbu bosqichda jami 50 ta test beriladi va bu testlarni yechish uchun har bir savolga 2 daqiqadan, jami 100 daqiqa beriladi.

Tuman (shahar) bosqichi yakunida har bir o'quvchining tumanlar kesimida o'rni aniqlanadi va har bir tumandan 1-, 2- va 3-o'rinni egallagan o'quvchilar viloyat bosqichi yo'llanmasini qo'lga kiritadi va qatnashadi. 1-, 2- va 3-o'rin uchun davogor o'quvchilarni testdan to'plagan bali teng bo'lsa, ular ham viloyat bosqichida qatnashadilar.

6. Viloyat bosqich (29.04.2026): Ushbu bosqichda jami 30 ta test beriladi va bu testlarni yechish uchun har bir savolga 2 daqiqadan, jami 60 daqiqa beriladi.

Ushbu bosqich yakunida eng yuqori ball to'plagan 12 nafar o'quvchi universitet bosqichiga o'tadi. Agar o'rin uchun davogor o'quvchilarni testdan to'plagan bali teng bo'lsa, ular ham universitet bosqichiga o'tadi.

7. Universitet bosqichi (30.04.2026): Urganch davlat universitetining Smart binosida bo'lib o'tadi. Ushbu bosqichda jami 30 ta test beriladi (*1-10 to'g'ri ishlangan testlar uchun 1,1 balldan, 11-20 to'g'ri ishlangan testlar uchun 2,1 balldan, 21-30 to'g'ri ishlangan testlar uchun 3,1 balldan beriladi*) va bu testlarni yechish uchun har bir savolga 3 daqiqadan, jami 90 daqiqa beriladi. Yakuniy universitet bosqichida faxrli 1-, 2- va 3-o'rin olgan o'quvchilar g'olib deb topiladi. Agar 1-, 2- va 3-o'rin uchun davogor o'quvchilarning bali teng bo'lib qolsa, shu o'quvchilar uchun shu kunning o'zida hakamlar hay'ati a'zolari tomonidan qo'shimcha 10 ta test beriladi. Agar davogorlarni bali yana teng bo'lib qolsa, davogorlarda ballar farqi yuzaga kelguncha 10 ta test berish orqali olimpiada qayta-qayta o'tkaziladi.

Olimpiadaning barcha bosqichlarining o'tkazilish vaqti kamida 1 kun oldin e'lon qilib boriladi. Olimpiada natijalari rasmiy veb-sayt yoki ijtimoiy tarmoqlar orqali e'lon qilinadi.

V. Baholash mezonlari (Kimyo va Biologiya fanlari)

8. Tuman (shahar) bosqich (27.04.2026): Ushbu bosqichda xohlovchi 11-sinf o'quvchilari qatnashishi mumkin. Kimyo va Biologiya fanlaridan testlar beriladi. Biologiyadan 25 ta test (*har bir testga 2 balldan*) beriladi hamda bu testlarni yechish uchun har bir testga 3 daqiqadan, jami 75 daqiqa vaqt beriladi. Kimyodan 40 ta test (*har bir testga 2,5 balldan*) beriladi hamda bu testlarni yechish uchun har bir testga 3 daqiqadan, jami 120 daqiqa vaqt beriladi.

Tuman (shahar) bosqichi yakunida har bir o'quvchining tumanlar kesimida o'rni aniqlanadi va har bir tumandan 1-, 2-, 3-o'rinni egallagan o'quvchilar viloyat

bosqichi yo‘llanmasini qo‘lga kiritadi va qatnashadi. 1-, 2-, 3-o‘rin uchun davogor o‘quvchilarni bali teng bo‘lsa, ular ham viloyat bosqichida qatnashadi.

9. Viloyat bosqichi (29.04.2026): Viloyat bosqichida 1-tur yozma ish shaklida o‘tkazilib, 5 ta topshiriq beriladi va har bir topshiriq javoblari maksimal 10 balldan baholanadi (jami 50 ball). 1-tur topshiriqlarini bajarish uchun 3 soat vaqt ajratiladi. 2-tur amaliy ish shaklida o‘tkazilib, 1 ta topshiriq beriladi va maksimal 50 ball bilan baholanadi. 2-tur topshiriqlarini bajarish uchun 2 soat vaqt ajratiladi.

Ushbu bosqich yakunida eng yuqori ball to‘plagan 10 nafar o‘quvchi universitet bosqichiga o‘tadi. Agar oxirgi o‘rin uchun davogor o‘quvchilarni to‘plagan bali teng bo‘lsa, ular ham universitet bosqichiga o‘tadi.

10. Universitet bosqichi (30.04.2026): Yakuniy bosqichda 1-tur yozma ish shaklida o‘tkazilib, 5 ta topshiriq beriladi va har bir topshiriq javoblari maksimal 10 balldan baholanadi (jami 50 ball). 1-tur topshiriqlarini bajarish uchun 3 soat vaqt ajratiladi. 2-tur amaliy (laboratoriya) ish shaklida o‘tkazilib, 1 ta topshiriq beriladi va maksimal 50 ball bilan baholanadi. 2-tur topshiriqlarini bajarish uchun 2 soat vaqt ajratiladi.

Kimyo fani uchun olimpiadaning Universitet bosqichi Urganch davlat universiteti asosiy binosining 108-, 109-auditoriyalarida o‘tkaziladi. Biologiya fani uchun esa Universitet asosiy binosining 203-, 211-auditoriyalarida o‘tkaziladi.

Yakuniy universitet bosqichida faxrli 1-, 2-, 3-o‘rin olgan o‘quvchilar g‘olib deb topiladi. Agar 1-, 2-, 3-o‘rin uchun davogor o‘quvchilarning bali teng bo‘lib qolsa, shu o‘quvchilar uchun shu kunning o‘zida hakam a‘zolari tomonidan qo‘shimcha 10 ta test beriladi. Agar davogorlarni bali yana teng bo‘lib qolsa, davogorlarda ballar farqi yuzaga kelguncha 10 ta test berish orqali olimpiada qayta-qayta o‘tkaziladi.

Mazkur talablarni buzgan shaxslarga nisbatan amaldagi qonunchilik hamda ichki normativ hujjatlar asosida intizomiy javobgarlik choralari qo‘llanilishi belgilab qo‘yiladi.

VI. Baholash mezonlari (Informatika va axborot texnologiyalari)

11. Ro‘yxatdan o‘tish (26.04.2026, soat: 23:59): Har bir maktabning bir nafar bitiruvchisi tuman (shahar) bosqichida ishtirok etish uchun ushbu contest bo‘ladigan sayt “<https://algo.urdu.uz>” dan ro‘yxatdan o‘tadi, keyin esa google form orqali (<https://forms.gle/RL21UUyGrpMZ5Ti57>) ro‘yxatdan o‘tadi. Diqqat algo.urdu.uz dagi loginini google form orqali ro‘yxatdan o‘tganda kiritish shart. Muddat: **26-aprel, soat: 23:59 gacha.**

| | | |
|----|---|---|
| 1. | https://algo.urdu.uz/ ushbu contest bo‘ladigan saytdan ro‘yxatdan o‘ting, login va parolingizni eslab qoling. |  <p>https://algo.urdu.uz/</p> |
| 2. | Google form orqali ro‘yxatdan o‘ting => |  <p>https://forms.gle/ruRbZ2wSnHhaU3jq5</p> |
| 3. | Savollar va yangiliklar uchun telegram guruhga qo‘shiling: @olimpiada_informatika_2026_urdu |  <p>@OLIMPIADA_INFO RMATIKA_2026_URD</p> |

Diqqat!!! Ro‘yxatdan o‘tmagan o‘quvchilarning “Tuman (shahar)” bosqichidagi ishtiroki inobatga olinmaydi. Ishtirokchilar har-bir bosqich natijalari haqidagi ma’lumotlarni aniqlash uchun @olimpiada_informatika_2026_urdu guruhiga qo‘shilishi shart.

12. Tuman (shahar) bosqichi (27.04.2026) - Ushbu bosqichda jami 10 ta masala beriladi va bu masalalarni yechish **27-aprel kuni** 10⁰⁰ dan boshlab 5 soat vaqt beriladi. O‘quvchilar masalalarni ushbu <https://algo.urdu.uz/> havola orqali kirib yechishi va yechimlarini yuborishi kerak bo‘ladi. Yuborilgan javoblar ACM baholash mezonini orqali baholanadi. Ushbu bosqich yakunida har bir o‘quvchining u ta’lim olayotgan maktab joylashgan tuman (shahar) kesimidagi o‘rni aniqlanadi. Har bir tuman (shahar) bo‘yicha 1-, 2- va 3-o‘rinlarni egallagan o‘quvchilar viloyat bosqichiga yo‘llanmani qo‘lga kiritadilar.

13. Viloyat bosqichi (29.04.2026): Ushbu bosqichda jami 10 ta masala beriladi va bu masalarni yechish **29-aprel kuni** 10⁰⁰ dan boshlab 5 soat vaqt beriladi. O‘quvchilar masalalarni ushbu https://algo.urdu.uz havola orqali kirib yechishi va yechimlarini yuborishi kerak bo‘ladi. Yuborilgan javoblar ACM

baholash mezonini orqali baholanadi. Ushbu sinov bosqichida **yuqori o‘rinni egallagan 20 ta o‘quvchilar yakuniy Universitet bosqichiga** o‘tadilar.

14. Universitet bosqichi (30.04.2026): Ushbu yakuniy bosqich Urganch davlat universitetida o‘tkaziladi va bunda jami 10 ta masala beriladi va bu masalarni yechish uchun 10⁰⁰ dan boshlab 5 soat vaqt beriladi. Yechimlar ACM baholash mezonini orqali baholanadi. Yakuniy universitet bosqichida faxrli 1-, 2-, 3-o‘rin olgan o‘quvchilar g‘olib deb topiladi.

15. ACM baholash mezonini: Har bir qatnashchining yechgan masalalar soni, masalani yechish uchun ketgan vaqt va urinishlar sonini hisobga olgan holda qatnashchilarni o‘rnini avtomatik belgilaydi. Har bir masala uchun yuborilgan javobni turli hil testlar orqali tekshiriladi va yuborilgan javob barcha testlardan o‘tsa yechim qabul qilinadi. Agar yechim noto‘g‘ri yoki xususiy hollar uchun bo‘lsa qabul qilinmaydi. Yechim qabul qilinmagan hollarda o‘quvchi qaytadan urinish qilishi mumkin bo‘ladi (Urinishlar soni ko‘pi bilan 100 tagacha bo‘lishi mumkin), ammo, har bir muvaffaqiyatsiz urinish uchun jarima sifatida 20 daqiqa qo‘shiladi. O‘quvchilar o‘zlarining yechimlari va egallagan o‘rnini real vaqt rejimida ko‘rib turishlari mumkin bo‘ladi.

Tizimga yuborilgan natijalar uchun tizim tomondan qaytariladigan javoblar.

| Xabar (uz) | Xabar (eng) | Qisqacha |
|--|-----------------------|-----------------|
| Yechim barcha testlardan muvaffaqiyatli o‘tdi. | OK | OK |
| Kompilyatsiya xatosi | Compilation error | CE |
| Noto‘g‘ri javob | Wrong answer | WA |
| Taqdimot xatosi | Presentation error | PE |
| Vaqt chegarasidan oshib ketdi | Time-limit exceeded | TL |
| Xotira chegarasidan oshib ketdi | Memory limit exceeded | ML |
| Chiqish chegarasidan oshib ketdi | Output limit exceeded | OL |

| | | |
|--|-------------------------|-----|
| Dastur ishlash vaqtida xatolik | Run-time error | RE |
| Oldindan kompilyatsiya tekshiruvi amalga oshmadi | Precompile check failed | PCF |
| “Keraksiz amallar” oshib ketdi | Idleness limit exceeded | IL |

VII. Hakamlar hay’ati

16. Olimpiadani ikkinchi va yakuniy bosqichida tashkiliy qo‘mita tomonidan 5 kishidan iborat tarkibda hakamlar hay’ati tuziladi.

17. Olimpiada jarayonida tizimga joylashtirilgan nazorat materiallarini ekspertizadan o‘tkazadi;

Olimpiada ishtirokchilari tomonidan bajarilgan ishlar mazkur nizom asosida tasdiqlangan baholash mezonlari asosida tizim orqali baholanadi. Tizimda eng yuqori natija ko‘rsatgan 3 nafar o‘quvchilar g‘oliblar aniqlanadi;

Olimpiada natijalari tizim orqali e’lon qilinib boriladi;

Tizimda natijalari bo‘yicha hakamlar hay’ati qaror qabul qiladi va tashkiliy qo‘mitaga taqdim qiladi.

18. Hakamlar hay’ati a’zolari olimpiada g‘oliblarini aniqlashda va nazorat materiallarini maxfiylikni ta’minlashda shaxsan javobgar hisoblanadi.

19. Olimpiadani tashkil etish va o‘tkazish jarayonlarida ochiqlik, shaffoflik: hamda adolatlilikni ta’minlash maqsadida quyidagi chora-tadbirlar qat’iy belgilanadi.

Olimpiada ishtirokchilari va ularning yaqin qarindoshlari (ota-onasi, aka-ukasi, opa-singlisi, turmush o‘rtog‘i) bilan bevosita aloqador shaxslarni tegishli fan bo‘yicha hakamlar hay’ati, apellyatsiya komissiyasi hamda test/topshiriqlar tayyorlovchi guruh tarkibiga kiritish taqiqlanadi;

Barcha komissiya a’zolari tomonidan manfaatlar to‘qnashuvi mavjud emasligi to‘g‘risidagi deklaratsiya (yozma yoki elektron shaklda) oldindan taqdim etilishi majburiy tartibda joriy etiladi;

Manfaatlar to‘qnashuvi aniqlangan hollarda tegishli shaxs darhol komissiya tarkibidan chetlashtiriladi va uning o‘rniga mustaqil ekspert jalb qilinishi ta’minlanadi;

Baholash jarayonida inson omilini kamaytirish maqsadida imkoniyat darajasida raqamli platformalar va anonimlashtirilgan (kodlashtirilgan) ishlarni tekshirish tizimi joriy etiladi;

VIII. Apellyatsiya komissiyasi

20. Apellyatsiya komissiyasi hakamlar hay'ati tarkibiga kirmagan 3 nafar fan mutaxassislardan iborat tarkibda tuziladi.

21. Apellyatsiya komissiyasi tomonidan olimpiada ishtirokchilari arizalari olimpiada natijalari e'lon qilingan kunning o'zida qabul qilinadi. Apellyatsiya jarayonida hakamlar hay'ati a'zolari, ishtirokchi va uning fan o'qituvchisi ishtirok etishi mumkin.

22. Apellyatsiyaga olimpiada ishtirokchilarining faqatgina o'zlari tomonidan bajarilgan ishlarni tizimda e'lon qilingandan keyin shu kunning o'zida ariza qabul qilinadi. Apellyatsiya uchun ariza quyidagi onlayn havola orqali berilishi mumkin: <https://forms.gle/8TjgTsQvvZDkCWMn8>

Ariza topshirish sahifasiga qulay kirish uchun quyidagi QR-koddan ham foydalanish mumkin:



23. Tizim tomonidan baholangan ishtirokchining bajargan ishida baholash mezonlariga mos kelmaslik holatlari aniqlanganda apellyatsiya komissiyasi tomonidan o'zgartirish kiritish huquqiga ega.